

## BOSHLANG‘ICH TA‘LIMDA O‘QUVCHI SHAXSI MA‘NAVYI–AXLOQIY TARBIYASININIG O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

*Yangiboyeva Orzigul Musurmankulovna,  
Muzrobot tumani 40–maktab o‘qituvchisi, Surxondaryo viloyati*

**Annotatsiya:** Maqolada boshlang‘ich ta‘limda shaxs ma‘naviy–axloqiy madaniyatini shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari bayon qilingan.

O‘quvchilarda tarkib toptiriladigan ma‘naviy–axloqiy sifatlar axloqiy ong bilan hatti – harakat o‘rtasida birlik bo‘lishini taqozo qiladi. Buning ma‘nosi shuki, haqqoniyliги o‘quvchilarga izchil uqtirib borilgan axloqiy–ma‘naviy tushunchalar ularning hatti – harakatlarida ham, ular qatnashgan jamoadagi o‘zaro munosabatlarda ham qaror topmog‘i lozim.

**Kalit so‘z va iboralar:** boshlang‘ich ta‘lim, shaxs ma‘naviy–axloqiy madaniyati, axloqiy ong, axloqiy–ma‘naviy tushuncha, jamoa, o‘zaro munosabat.

Yoshlarning axloqiy tarbiyasini rivojlantirish va axloqiy jihatdan yetuk shaxs sifatida shakllantirish bizning oldimizdagi dolzarb vazifa hisoblanadi. Axloqiy tarbiya shaxsning jamiyat axloqiy tajribalarini egallashi va bu tajribalardan boshqa odamlar bilan bo‘lgan munosabatlarida foydalanishi, o‘z – o‘zini muntazam takomillashtirib borishi singari jihatlarni o‘z ichiga oladi. Demak, axloqiy tarbiya masalasiga e‘tibor berishimiz va uning elementlarini aniqlab olishimiz muhimdir. Axloqiy jihatdan yetuk tarbiyalangan shaxs axloqiy madaniyatga ham ega bo‘ladi.

Shaxs tashqi olam, voqea va hodisalarni aql, idrok ruhiy holat, ichki kayfiyatlar orqali qabul qilib olishi jarayonida ma‘naviy madaniyat tashkil topadi. Yuksak ma‘naviy madaniyatli insonda vatanga muhabbat, samimiy do‘stlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mustahkam e‘tiqod, iymon, nafosat, axloqiy madaniyat singari fazilatlar mujassamlashadi. Uning sifat darajasi kishilarning umuminsoniy va milliy qadriyatlarga xalqning ma‘naviy merosiga bo‘gan munosabatlarida namoyon bo‘adi.

Axloqiy madaniyatning sistemasini tashkil etuvchi bosh substansional elementini tahlil qiladigan bo‘lsak, B.Sh.Mamarasulov: “...barcha jamiyatlar va insoniyat taraqqiyotining hamma bosqichlarida, ijtimoiy o‘zgarishlar zamirida boshqa jonzotlardan o‘zining ongi va tafakkuri bilan tubdan farq qiladigan va maqsadga muvofiq faoliyatni amalga oshiradigan inson ijtimoiy hayot sub‘yekti hisoblanadi”.

Axloqiy madaniyatga axloqiy bilimlar, malaka va ko‘nikmalar, axloq qoidalari yordamida o‘quvchining xulq–atvori, hatti–harakatlarini boshqarish tizimidir. Axloqiy madaniyat o‘quvchining ko‘p qirrali faoliyati davomida shakllanib va takomillashib boradi.

Axloqiy hayot, jumladan, axloqiy madaniyat va axloqiy tarbiyaning bosh substansional elementi inson va uning birliklari ekan, bu borada biz E.T. Dalkonovning quyidagi falsafiy fikrlariga tayandik: “Inson va uning birliklari. Ular madaniy borliq yuzaga kelishining sub‘yektlari yaratuvchisi va tashuvchilari hisoblanadilar.

Ma‘naviy–axloqiy mazmundagi ta‘lim–tarbiya ishini tashkil etish ta‘lim muassasasi pedagogik jamoasining umumiy ishining tarkibiy qismi bo‘ib, ularning

o‘tkazilishida maktab rahbariyati, kasaba uyushmasi a‘zolari, tajribali mutaxassis o‘qituvchilar, mahalla kengashlari, ota-onalar qo‘mitasi, o‘quvchilarning o‘z-o‘zini boshqarish organlari, shuningdek, jamoat tashkilotlari, xodimlari ham ishtirok etadilar.

Ta’lim muassasalarida ma’naviy–axloqiy tarbiyani yo‘lga qo‘yishning quyidagi turlari alohida ahamiyatga egadir: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar, ko‘riklar, konferensiya, baxs–munozara va boshqalar.

Ma’naviy–axloqiy tarbiyani tashkil etishda tarbiyaviy tadbirlar umumiy tarbiyaning ajralmas qismi sifatida ta’lim muassasalari faoliyatini tashkil etishda o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega. Ma’naviy–axloqiy tarbiyaning qamrovi keng, shu bois, ularni qanday shakl va uslubda o‘tkazilishi mutaxassis o‘qituvchining tajribasi, mahorati hamda o‘quv muassasasi rahbariyati, jamoasining, fan o‘qituvchilarining tashabbuslarini qo‘lab–quvvatlashi, ularga tashkiliy jihatdan yordam ko‘rsatish, shu bilan birga o‘quvchilarning istak–xohishlari, qiziqishlari, ehtiyojlari va ijtimoiy faolliklariga bog‘liq.

Ma’naviy–axloqiy mazmundagi tadbirlarni o‘tkazish ushbu tarbiyani tashkil etishdagi ko‘zlangan asosiy maqsadga xizmat qilmog‘i kerak. Inson tabiatda dunyoga kelib, jamiyatga kamol topar ekan, shubhasiz, tarbiyaning turli vositalaridan foydalanadi.

Ma’naviyat tarbiyasidagi e‘tiqod tushunchasini ana shunday tarbiya vositalaridan deb ko‘rsatish mumkin. Buning sababi o‘quvchi–yoshlar kimlargadir taqlid qilgisi keladi. O‘z ko‘ngliga o‘tiradigan dovyurak, o‘ktam, mehnatga ilg‘or kishilarga, tarixiy shaxslarga, badiiy asar qahramonlariga e‘tiqod qo‘yadilar. Shunga ko‘ra tarbiya vositasi bo‘gan namuna kishilarning ijobiy (ba‘zan o‘ta salbiy) hattiharakatlari va ijtimoiy foydali faoliyatning tarbiyalanuvchilar ongi va hatti–harakatiga ko‘rsatadigan ta’siri deb tushungan holda o‘qituvchilar o‘z tarbiyaviy rejalarini boyitib borishlari kerak.

Chunki har bir fan o‘qituvchisi doimo uchta vazifani: o‘quvchilarga ta’lim va tarbiya berish, ularni kamol toptirish vazifalarini hal etishi lozim bo‘adi shu bilan birga o‘quvchilarning tarbiyasi va kamoloti ta’lim jarayonida ham amalga oshirilishi rejalashtiriladi. Mazkur rejalashtirilishlarda, albatta, e‘tiqod tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratish lozim.

Bolalarning axloqiy ongi va xulq–atvori birlikda shakllanadi – bu pedagogikaning asosiy tamoyilidir. Bolalarda kattalar va tengdoshlar bilan munosabatlarda yangi xususiyatlar paydo bo‘ladi. Bolalar kattalar bilan mazmunli muloqotga faol qiziqish bildiradilar. Voyaga yetgan odamning obro‘si, uning qadr–qimmati xulq–atvorda jiddiy ro‘l o‘ynashda davom etmoqda. Mustaqillik va xulq–atvorni anglashning o‘sishi o‘rganilgan axloqiy me‘yorlar bo‘yicha harakatlarda rahbarlik qilish qobiliyatini rivojlantirishga olib keladi.

Turli yoshdagi bolalarga taqlid qilishga moyillik turlicha bo‘adi. Masalan, kichik yoshdagi bolalar ijobiy namunaga ham, salbiy namunaga ham babaravar taqlid qilaveradi. Buning sababi ularning turmush tajribasining juda kamligi, iroda kuchining nihoyatda zaifligi, hissiyotlarining aqlidrokidan ustun turishidadir. Ularda tahlil qilish va harakatlarga tanqidiy ko‘z bilan qarab baho berish xislatlari hali shakllanmagan bo‘adi. Bolalar ulg‘ayib borgan sari o‘z tevarak–atrofidagi katta yoshdagi kishilarning

hatti – harakatlariga tobora tanqidiy nazar bilan qaraydigan bo‘adilar. Shu yoshdagi bolalar o‘z nuqtai nazarlaridan taqlid qilishga arzigulik deb bilgan kishilarnigina o‘zlari uchun namuna deb biladilar va ularga e‘tiqod qo‘yadilar.

O‘quvchilarda tarkib toptiriladigan ma‘naviy–axloqiy sifatlar axloqiy ong bilan hatti – harakat o‘rtasida birlik bo‘ishini taqozo qiladi. Buning ma‘nosi shuki, haqqoniyliги o‘quvchilarga kunmakun uqtirib borilgan axloqiy–ma‘naviy tushunchalar ularning hatti – harakatlarida ham, ular qatnashgan jamoadagi o‘zaro munosabatlarda ham qaror topmog‘i lozim.

O‘quvchilarning ma‘naviy–axloqiy tushunchalari faqat dars jarayonidagina emas, balki kundalik turmushda ham sinovlardan o‘tib shakllana boradi. Shuning uchun ta‘lim–tarbiya jarayonida shunday sharoit yaratmoq kerakki, o‘quvchilar sabot–matonat, qunt, tashabbuskorlik, chidam ko‘rsata oladigan, qiladigan ishlarning jamiyat va vatan uchun zarurligini qalbdan tushunadigan bo‘sinlar. O‘quvchilarga beriladigan bilimlar majmui, shubhasiz, juda katta tarbiyaviy kuchga egadir.

O‘quvchilarda chinakam ilmiy dunyoqarash asoslarini yaratishda, to‘g‘ri hukm yuritish qobiliyatini tarbiyalashda ma‘naviy–axloqiy sifatlarga tayanib ish ko‘riladi.

Bir so‘z bilan aytganda, e‘tiqod tarbiyasi barkamol shaxsni tarbiyalashdagi asosiy omillardan biri bo‘ib, shaxsni har tomonlama garmonik tarbiyalashga zamin yaratadi. Biroq, insonni kamolga yetkazishda har bir shaxsga o‘ziga xos munosabatda bo‘ish ta‘lim–tarbiyaning asosiy tamoyillari ekanligini unutmashimiz lozim.

#### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Bolotina L.R., Komarova T.S., Baranov S.P. Maktabgacha pedagogika: O‘rta pedagogik ta‘lim muassasalari talabalari uchun darslik, 2–nashr. / L.R. Bolotina, T.S. Komarova, S.P. Baranov. – M: “Akademiya” nashriyot markazi, 1997. – 240 b.
2. Bure R.S., Ostrovskaya L.F. G., qituvchi va bolalar / R.S. Bure. – M., 1997. – 143 b.
3. Gello V. Kitobni saqlashga o‘rgating / V. Gello // Maktabgacha ta'lim. – 1976. – 1–son. – 11– 14–betlar.
4. Erofeeva T. Maktabgacha yoshdagi bolalar tomonidan o‘rtoqlar bilan xulq–atvor qoidalarini o‘zlashtirish // Maktabgacha ta'lim. – 1980. – 10–son. – S. 32–35. 5. Ivanova Nutq madaniyatini tarbiyalash. // Maktabgacha ta'lim. – 1988 yil – 12–son. – B. 6–12